

**FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLARNING FUQAROLIK
FAOLLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

N.T.Orinbetov – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**ЦИВИЛИЗАЦИЯ МОЛОДЕЖИ В РАЗВИТИИ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ АКТИВНОСТИ**

Н.Т.Оринбетов – *доктор философии педагогических наук*
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**CIVILIZATION OF YOUTH IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY
ISSUES OF INCREASING ACTIVITY**

N.T.Orinbetov – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences*
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: fuqarolik jamiyati, yoshlar, fuqarolik faolligi, ijtimoiy faollik, fuqarolik ongi, demokratik jarayonlar, jamoat institutlari, yoshlar siyosati.

Rezyume. Mazkur maqolada fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida yoshlarning fuqarolik faolligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, fuqarolik ongi va mas'uliyatining shakllanish omillari yoritilgan. Shuningdek, fuqarolik institutlari bilan yoshlar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Maqolada mavjud muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan.

Ключевые слова: гражданское общество, молодежь, гражданская активность, социальная активность, гражданское сознание, демократические процессы, общественные институты, молодежная политика.

Резюме. В статье анализируются теоретические и практические аспекты повышения гражданской активности молодежи в процессе развития гражданского общества. Освещаются вопросы участия молодежи в социально-политических процессах, а также факторы формирования гражданского сознания и ответственности. Рассматриваются механизмы взаимодействия молодежи с институтами гражданского общества. В работе также предложены рекомендации по решению существующих проблем.

Key words: civil society, youth, civic engagement, social activity, civic awareness, democratic processes, public institutions, youth policy.

Summary. The article analyzes the theoretical and practical aspects of enhancing youth civic engagement in the process of developing civil society. It highlights the participation of young people in socio-political processes and examines the factors influencing the formation of civic awareness and responsibility. The mechanisms of cooperation between youth and civil society institutions are also discussed. The paper proposes recommendations aimed at addressing existing challenges.

Kirish. Bugungi globallashuv va demokratik islohotlar sharoitida fuqarolik jamiyatini barpo etish masalasi har bir davlat taraqqiyotining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Fuqarolik jamiyati - haqiqiy fuqarolardan, ya'ni uzviy aloqada bo'lgan hamda axloqiy madaniyatga tayanadigan, huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyat.

Sharqda fuqarolik jamiyatining o'ziga xos tushunchasi mavjud bo'lib, bu bevosita axloq, madaniyat va ma'naviyatning huquq bilan uyg'unlashgan, xulq-atvor, yurish-turish va qoida normalarining uzviy uyg'unlashgan shakli bilan bog'liq. Masalan, eng qadimgi yozma manba "Avesto"da odamlarning birlashib yashashi, o'zaro munosabatlar va aloqalarning axloqiy mezonlarga tayanishi kabi g'oyalar bayon etilgan [1]. Bunda o'z-o'zidan jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish, jamiyatni shaxs tomonidan emas, qonun boshqarishi

kabi fuqarolik jamiyatining dastlabki belgilari aks etgan. Uzoq tarixiy taraqqiyot natijasida fuqarolik jamiyatining hozirgi zamonaviy tushunchasi shakllandi.

Fuqarolik jamiyati - bu qonun ustuvor bo'lgan, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyasi ta'minlanadigan, shaxsning rivojlanishi va o'zligini namoyon etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan, aholining keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan mustaqil va barqaror institutlar amal qiladigan ijtimoiy makondir.

Fuqarolik jamiyati jamiyat a'zolarining huquq va erkinliklari ta'minlangan, ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtiroki yo'lga qo'yilgan tizim sifatida davlat va jamiyat o'rtasida muhim bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajaradi. Mazkur jarayonda yoshlarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular jamiyatning eng faol, tashabbuskor va innovatsion qatlami hisoblanadi.

Yoshlarning fuqarolik faolligi jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, demokratik qadriyatlarni qaror toptirish hamda islohotlarning izchil amalga oshirilishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, yoshlarning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi, ularning huquqiy ongini yuksaltirish, fuqarolik mas'uliyati va tashabbuskorligini rivojlantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Fuqarolik faolligini oshirish esa, avvalo, ta'lim-tarbiya tizimi orqali yoshlarda fuqarolik ongini shakllantirish, demokratik tamoyillarni anglash va ularga amal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Shuningdek, yoshlarning nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari va ijtimoiy tashabbuslarda ishtirokini kengaytirish, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini kuchaytirish fuqarolik jamiyati rivojining muhim sharti hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarning fuqarolik faolligini yuksaltirishga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy mexanizmlarni tadqiq etish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizning "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga o'tish davrida yoshlarning qonun hujjatlari mazmunidan xabardorligi, huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, ularda sog'lom turmush tarziga amal qilish, inson huquqlari, gender tenglik, tinchliksevarlik va millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi, barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'alarini hurmat qilish kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faollik, mustahkam fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy milliy ta'lim-tarbiyaning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab olingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, tizimli va mantiqiy tahlil, shuningdek, taqqoslama-huquqiy usullardan foydalanildi. Tadqiqot mamlakatimizda yoshlarda fuqarolik faollikni shakllantirishga oid qonunlar, farmonlar va konseptual hujjatlar asosida olib borildi. So'nggi yillarda qabul qilingan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar tahlili yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini uzluksiz tarbiyalash zarur dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Asosiy natijalar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da "fuqarolik pozitsiyasi, o'zi va atrofida qilargalarga hamda jamiyatga munosabat asoslarining shakllanishi," "faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish" kabi indikatorlar [2] alohida belgilab berilgan.

Mustahkam fuqarolik faolligi shakllangan yoshlar davlatga daxldorlikni anglab yetadi, shuningdek, bu

yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usi, konstitutsiya, qonunlar va davlat ramzlariga hurmat hissi yuqori bo'ladi. Shuningdek, fuqarolik bir tomondan jamiyatda shaxsning mustaqilligini, ikkinchi tomondan odamlarning jamiyat hayotidagi ishtirokida aks etadigan yuqori darajadagi birlikni nazarda tutadigan qarashlar yig'indisini anglatadi.

Yoshlarning fuqarolik faolligini oshirishda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning o'rni juda muhim, chunki ularda ijtimoiy faollikni oshirish, jamiyat oldida fuqarolikni anglash ko'nikmalarining shakllanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish nafaqat davlat rahbarining yoki davlat xizmatchilari-ning vazifasi, balki yoshlar tarbiyasiga mas'ul bo'lgan jamiyatdagi barcha fuqarolarning burchidir. Yoshlarga e'tibor, bu eng avvalo, oilaning, qolaversa, jamiyatning asosiy vazifasiga aylanib bormoqda.

Natija shundan iboratki, huquqiy bilimlar asosida yoshlarning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda oila, mahalla, ta'lim-tarbiya muassasalari, jamoat tashkilotlari, siyosiy institutlar, yoshlar tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari hamda ularning birgalikdagi faoliyati muhim omillardan hisoblanadi. Ushbu institutlarning tizimli va uzluksiz hamkorligi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident Farmonida ham quyidagicha belgilab berilgan:

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish "shaxs - oila - mahalla - ta'lim muassasasi - tashkilot - jamiyat" tamoyili bo'yicha tizimli va uzluksiz tashkil etiladi [5].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5618-sonli Farmoni asosida "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish" Konsepsiyasi qabul qilingan. Konsepsiyada yoshlarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishga, ularning fuqarolik faolligini yuksaltirishga alohida e'tibor berilgan. Jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirishdagi muammo va kamchiliklar "Yuksak huquqiy madaniyat – davlat taraqqiyotining kafolati" degan g'oya ostida ushbu konsepsiya qabul qilingan va uni amalga oshirish talab etiladi. Konsepsiyaning I bob 3-qismida ta'lim muassasalarida huquqiy savodxonlikni oshirish belgilab berilgan. Ayniqsa, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, huquqbuzarlik va korrupsiyaga qarshi kurashish hissinu uyg'otish, ekstremizm, terrorizm va boshqa yot g'oyalarga qarshi qat'iy immunitetni shakllantirish va ularning fuqarolik faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Hozirgi kunda ayrim ta'lim muassasalarida, konsepsiyada belgilangan vazifalarni to'liq va muntazam ravishda amalga oshirish mexanizmlari yaratilmagan, aksariyat hollarda faqat yig'ilishlar o'tkazish bilan cheklanib qolingan. Yoshlarning huquqiy bilimlar asosida fuqarolik faolligini oshirishda ular olgan bilimlarni

o'zlari hayotda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirishimiz va barqaror o'z pozitsiyasiga ega bo'lishiga erishishimiz lozim. Bu borada ko'pincha innovatsion usullarni joriy etishimiz va ulardan samarali foydalanishimiz talab etiladi.

Buning uchun yoshlarning fuqarolik faolligini huquqiy bilimlar asosida rivojlantirishda quyidagi innovatsion usullarni joriy etish orqali natijaga erishishimiz mumkin:

- huquq sohasiga oid internet portalini yaratish (huquqiy saytlar, yuridik lug'atlar, huquqiy elektron kutubxona, maqsadli auditoriyalar);

- turli huquqiy holatlarga yechim taqdim etadigan huquqiy maslahat tizimini yaratish va uni ishga tushirish;

- fuqarolarning turli huquq sohalari bo'yicha o'z bilimini sinash maqsadida turli loyihalar yaratish va uni ishga tushirish;

- ijtimoiy tarmoqlarda targ'ibot ishlarini olib borish;

- ijtimoiy tarmoqlarda so'rovlar, anketalar orqali yoshlarning huquqiy madaniyatini tahlil qilish va shu asosda fuqarolik faolligini oshirish;

- huquqiy adabiyotlarning (darslik, o'quv qo'llanmalar, metodik qo'llanmalar) elektron variantini ishlab chiqish, ayniqsa qoraqalpoq tilidagi variantlarini takomillashtirish.

Muhokama. Bugungi kunda dunyoda ro'y berayotgan voqealar, globallashuv jarayonlarining tezlashuvi va kengayishi, turli hududlarda yuzaga kelayotgan inqirozlar Fr.Nitsshe fikricha, "barcha qadriyatlarni qayta baholash" [3:31]ga olib kelmoqda va bu baholash ba'zi ziddiyatlarga, hatto destruktiv xususiyatlarga ega. Bugungi kunda ayrim G'arb davlatlari globallashuv va demokratiya bayrog'i ostida o'z madaniyatlarini boshqa hududlarga yoyishga intilmoqda. Ziddiyatlarga boy bo'lgan bunday muammolarni anglash uchun yoshlarni an'analar va qadriyatlarimiz asosida tarbiyalash, ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, erkin fikrlashi, hayotiy pozitsiyasi, keng dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishga ko'maklashish talab etiladi.

Shundan kelib chiqib, yoshlarda fuqarolik faollikni oshirish - har bir yoshda eng avvalo o'z xalqining tarixi, ma'naviy qadriyatlari, Vatanimizning imkoniyatlari va kelajagini bilish, uni qadrlash, undan

quvonish, yurtimiz tinchligi, Vatanimiz taraqqiyoti va xalq farovonligi uchun mas'uliyatni his etish, o'z huquq va burchlarini yaxshi bilish bilan birga ularni to'liq amalga oshirish, har qanday holatda ham milliy manfaatlarni himoya qila oladigan fazilatlarini tarbiyalashdan iborat. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, "barchamizning asosiy vazifamiz – yoshlarimizning mustaqil fikri va dunyoqarashi shakllanishiga ko'maklashish, hayotda o'z pozitsiyasini qat'iy belgilab olishga yordam berish, ularni ongli va bilimli qilib tarbiyalash, atrofimizdagi voqea-hodisalarga befarq bo'lmaslik, davlatga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashga o'rgatishdan iborat" [4:100].

Bu borada qator ijobiy ishlar ham olib borilmoqda. Masalan: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan "Bola huquqlari," "Advice.uz," "Huquqiyportal.uz," "So'ragan edingiz" kabi internet portallari yaratilib ishga tushirilgani tahsinga sazovor. Biroq, faqat bu bilan cheklanib qolmasdan, yana huquqiy portallar sonini ko'paytirish, fuqarolik jamiyati institutlari ham bu borada o'z ishlarini takomillashtirish orqali yoshlarning fuqarolik faolligini oshirishda ijobiy natijalarga erishiladi.

Hozirgi kunda davlat siyosatining vazifalaridan biri bilimni, jismonan sog'lom, huquqiy madaniyatli, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, har tomonlama yetuk va barkamol yoshlarni tarbiyalashdir. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun bir qator normativ hujjatlar qabul qilingan. Masalan: "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunda yoshlarning faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishining asoslari kafolatlangan [6].

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida kechayotgan zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy transformatsiyalar demokratik muhitda faol ishtirok eta oladigan, jamiyat va davlat taraqqiyotiga, shuningdek, o'z manfaatlariga ongli ravishda xizmat qiluvchi yetuk va mas'uliyatli shaxslarni voyaga yetkazishni talab etmoqda. Bu esa ta'lim-tarbiya tizimini izchil ravishda takomillashtirish, uni nafaqat yoshlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga, balki ularda fuqarolik ongini, ijtimoiy mas'uliyatni, fuqarolik burchini anglash hamda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga yo'naltirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar

1. Avesto. O'zbekcha tarjima (Asqar Mahkam tarj.). – Toshkent: «Sharq», 2001.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги «Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 1059-сон Қарори.
3. Ницше Ф. Воля к власти. Опыт переоценки всех ценностей. – Москва: «Транспорт», 1995.
4. Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. 14-жилд. –Тошкент: «Ўзбекистон», 2006.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти 2019 йил 9-январьдаги «Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида»ги ПФ-5618-сон Фармони.
6. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14-сентябрьдаги «Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида»ги ЎРҚ-406-сон Қонуни.